

**Muzaffarov Navruzxon Baxronovich**, katta o'qituvchi, Iqtisodiyot va pedagogika Universiteti Samarqand Kampusi +998993119899,  
[muzaffarovnavruz799@gmail.com](mailto:muzaffarovnavruz799@gmail.com)



## SOHIBQIRON AMIR TEMUR – DUNYO TARIXIDA CHUQUR IZ QOLDIRGAN SARKARDA VA SIYOSIY YETAKCHI

<https://zenodo.org/records/18841164>

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada Amir Temurning davlat boshqaruvi, adolat tamoyillari va iqtisodiy-siyosiy faoliyati keng yoritilgan. Unda Sohibqironning “Temur tuzuklari” asosida mamlakatni boshqarish tizimi, adolat va haqiqatni bosh g'oya sifatida ilgari surgani, markazlashgan davlat barpo etgani ta'kidlanadi. Shuningdek, uning dehqonchilik, hunarmandchilik va savdoni rivojlantirishga qaratilgan oqilona iqtisodiy siyosati, soliqlarda rag'batlantirish usullaridan foydalangani, ichki va tashqi savdoni kengaytirgani misollar bilan ochib beriladi.

Maqolada Amir Temurning kadrlar tanlashdagi talabchanligi, qonun ustuvorligini ta'minlashdagi qat'iyligi, zolim amaldorlarga nisbatan keskin choralar ko'rgani tarixiy manbalar asosida bayon etiladi. Xorijiy tarixchilar va adiblarning fikrlari orqali uning jahon miqyosidagi nufuzi va e'tirofi ko'rsatib berilgan.

Umuman, maqola Amir Temur merosini qayta o'rganish, uning adolatparvar boshqaruv tajribasini chuqur tahlil qilish va yoshlar ongida milliy g'urur hamda tarixiy xotirani shakllantirish zarurligini asoslab beradi.

**Kalit so'zlar:** Amir Temur, Sohibqiron, Temur tuzuklari, adolat va haqiqat, markazlashgan davlat, davlat boshqaruvi, harbiy strategiya, To'xtamishxon jangi, iqtisodiy siyosat, dehqonchilikni rivojlantirish, hunarmandchilik, savdo-sotiq, Buyuk Ipak yo'li, soliqlar siyosati, raiyat farovonligi, kadrlar siyosati, qonun ustuvorligi, xalqparvarlik, milliy g'urur, temurshunoslik.

## SAHIBKIRAN AMIR TEMUR – A WARRIOR AND POLITICAL LEADER WHO LEFT A DEEP MARK IN WORLD HISTORY

**Annotation:** This article comprehensively highlights the system of state governance, principles of justice, and socio-economic and political activities of Amir Temur. It emphasizes that, based on the Temur Tuzuklari, Sahibqiran established an effective system of governance, promoting justice and truth as the fundamental principles of his rule and creating a centralized state. The article also illustrates, with examples, his wise economic policy aimed at developing agriculture, craftsmanship, and trade, his use of incentive-based taxation methods, and his efforts to expand both domestic and foreign trade.

Furthermore, the article discusses Amir Temur's strict approach to selecting officials, his firm commitment to ensuring the rule of law, and the decisive measures he

took against oppressive administrators, based on historical sources. Through the opinions of foreign historians and writers, his international prestige and recognition are also demonstrated.

Overall, the article substantiates the importance of re-examining the legacy of Amir Temur, conducting an in-depth analysis of his justice-oriented governance experience, and fostering a sense of national pride and historical awareness among the younger generation.

**Keywords:** Amir Temur, Sahibqiran, Temur Tuzuklari, justice and truth, centralized state, public administration, military strategy, Tokhtamysh campaign, economic policy, agricultural development, craftsmanship, trade, Silk Road, tax policy, public welfare, personnel policy, rule of law, people-oriented governance, national pride, Timurid studies.

### **САХИБКИРАН АМИР ТЕМУР – ВОИН И ПОЛИТИЧЕСКИЙ ЛИДЕР, ОСТАВИВШИЙ ГЛУБОКИЙ СЛЕД В МИРОВОЙ ИСТОРИИ**

**Аннотация:** В данной статье подробно рассматриваются вопросы государственного управления, принципов справедливости, а также экономической и политической деятельности Амира Тимура. Подчеркивается, что Сахибкиран выдвинул систему управления страной на основе «Положений Тимура», поставив во главу угла справедливость и правду, и установил централизованное государство. Также на примерах раскрывается его рациональная экономическая политика, направленная на развитие сельского хозяйства, ремесел и торговли, использование налоговых льгот и расширение внутренней и внешней торговли.

В статье, опираясь на исторические источники, описывается требовательность Амира Тимура в отборе кадров, его твердость в обеспечении верховенства права и его радикальные меры против тиранических чиновников. Мнения зарубежных историков и писателей свидетельствуют о его всемирном влиянии и признании.

В целом, статья обосновывает необходимость переосмысления наследия Амира Тимура, глубокого анализа его опыта справедливого управления и формирования национальной гордости и исторической памяти у молодежи.

**Ключевые слова:** Амир Тимур, Сахибкиран, законы Тимура, справедливость и правда, централизованное государство, государственное управление, военная стратегия, битва Тохтамыш-хана, экономическая политика, развитие сельского хозяйства, ремесла, торговля, Великий Шелковый путь, налоговая политика, благосостояние народа, кадровая политика, верховенство права, патриотизм, национальная гордость, исследования творчества Тимура

Sohibqiron Amir Temur bobomizning qutlug‘ tavallud ayyomlarini yuksak darajada, har tomonlama munosib o‘tkazish uchun, albatta, tegishli qarorlarni qabul qilganmiz. Ularni amalga oshirishda mahallalar, ta’lim-tarbiya maskanlari, mehnat jamoalari, ziyolilarimiz, xorijdagi elchixonalarimiz, umuman, butun xalqimiz faol ishtirok etadi, deb ishonaman.

**Sh.Mirziyoyev**

**Kirish**

Yurtboshimiz “Daryo” muxbiri bilan bo‘lgan uchrashuvda quyidagilarni qayd etgan edi. Amir Temur davrini qaytadan o‘rganishimiz lozim. Nega deganda “Sohibqiron Amir Temur bilan To‘xtamishxonning jangi haqida o‘qib chiqdim. Amir Temur bu jangda yettita usulni qo‘llagan ekan. Jasorati, o‘z askarlarini mardonavor tarbiyalashi bilan birga, janglarni ham o‘zi boshqargan. O‘zim uchun ham bu yangilik bo‘ldi. Keyin kimdir shu jang usulini o‘rgangani bilan qiziqib ko‘rdim. Hech kim o‘rganmagan ekan. Eng avvalo bobolarimizning usullarini o‘rganishimiz kerak” deb qayd etgan edi.

Bizga tarixdan ma’lumki adolat o‘rnataman deb kurashgan davlat arboblari tarixda bo‘lgan, lekin ularning ko‘pchiligi Amir Temurni jahon e’tirof etgandek sharafta muayassar bo‘lmagan.

Haqiqat, Adolat Temur davlatining bosh g‘oyasi bo‘lgan. U doim adolat, haqiqat uchun kurashgan. “Haqiqat sog‘-salomatlik, haqiqat tartib kuch adolatdadir” degan g‘oya Temur davlatining bosh g‘oyasi bo‘lgan.

### **Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili**

Sohibqiron Amir Temur shaxsiyati, siyosiy faoliyati va tarixiy merosini turli davrlarda turli izlanuvchilar tomonidan kompleks va qiyosiy o‘rganish hamda tahlil qilinishi imkonini berdi. Ibn Arabshoh asarida — voqealarga tanqidiy va ba’zan salbiy munosabat bildiradi. U Temurning harbiy yurishlari, siyosiy uslubi va iqtisodiy siyosatini keskin baholaydi. Ibn Arabshohning qarashlari Temurga nisbatan qarama-qarshi tarixiy nuqtayi nazarni ifodalaydi va tarixshunoslikda muvozanatli tahlil yuritish uchun muhimdir. Keren Leyseyning “Temur saltanati” asari — Yevropa tarixshunosligida Temur obrazining shakllanishini ko‘rsatadi. XIX asr fransuz muhitida yaratilgan ushbu tadqiqotda Temur kuchli sarkarda sifatida tasvirlanadi, biroq u Yevropa markazchi qarashlar ta’sirida baholanadi. Bu asar Temur shaxsiyatining G‘arb ilm-fanidagi talqinini o‘rganish uchun muhim desak bo‘ladi. Yana bir Yevropa tarixchisi Louis Bazinning Temur haqidagi tadqiqoti — uni “tarix g‘ildiragini o‘zgartirgan shaxs” sifatida talqin qiladi. XX asr fransuz sharqshunosligi doirasida yaratilgan ushbu asar Temurning jahon tarixidagi o‘rnini global miqyosda baholaydi. Sharafiddin Ali Yazdiy esa, “Zafarnoma” asarida — Temur hayoti va harbiy yurishlarini madhiyaviy ruhda tasvirlaydi. Asar Temur saroyiga yaqin muhitda yozilgan bo‘lib, unda hukmdorning siyosiy faoliyati yuksak e’tirof etiladi. “Zafarnoma” Temur davrining rasmiy tarixiy manbasi sifatida katta ilmiy ahamiyatga ega.

### **Tadqiqot metodologiyasi**

Mazkur tadqiqot jarayonida Amir Temur davrini o‘rganishda turli metodologik yondashuvlarni namoyon etadi. Ularni tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, har bir asar o‘z davri, muallifining dunyoqarashi va ilmiy maktabiga mos tarzda shakllangan. Masalan, “Temur tuzuklari” normativ-huquqiy va siyosiy-falsafiy metodologiya asosida yaratilgan. Asarda davlat boshqaruvi, harbiy tizim, ijtimoiy tartib va adolat mezonlari aniq qoidalar shaklida bayon qilinadi. Bu yerda tavsifiy emas, balki preskriptiv (me’yor belgilovchi) uslub ustun: ya’ni hokimiyat qanday amalga oshirilishi kerakligi ko‘rsatib beriladi. Shu jihatdan “Tuzuklar” amaliy boshqaruv tajribasini nazariy tamoyillar bilan uyg‘unlashtirgan manba sifatida baholanadi.

Temur davrining klassik tarixiy manbalaridan yana biri bo‘lgan — Sharafiddin Ali Yazdiyning qalamiga mansub “Zafarnoma” asari — metodologiyasi xronikal-biografik xarakterga ega bo‘lib, voqealar ketma-ketlik asosida bayon etiladi. Bunda hukmdorni ulug‘lash va uning hokimiyatini legitimlashtirish maqsadi sezilarli. Asar tarixiy faktlarni berish bilan birga, siyosiy-mafkuraviy vazifani ham bajaradi. Yoki, Yevropa

tarixshunosligiga mansub tadqiqotlarda esa qiyosiy va ilmiy-tanqidiy metodologiya shakllangan. Masalan, XIX asr fransuz tarixchisi Keren Leyseyn o'z asarida Temur saltanatini Yevropa siyosiy tizimlari bilan qiyoslash orqali tahlil qiladi. Uning yondashuvi pozitivistik tarixiy-tavsifiy uslubga yaqin bo'lib, voqealarni tizimli va mantiqiy izchillikda yoritishga intiladi.

### **Tahlil va natijalar**

Amir Temur 1370-yilda hokimiyatni qo'lga olgach, tarixda "Temur tuzuklari" nomini olgan mamlakatni boshqarish va islohatlar o'tkazish dasturini ishlab chiqdi. Unga muvofiq davlat ishlarining to'qqiz ulishi tadbir va mashvarat, qolgan bir ulishi qilich bilan ado etilmoqda, deb belgilangan.

Amir Temur hokimiyat tepasiga o'tirganda adolatsizlikning hamma holatlarini ko'rib, undan nafratlandi va adolatli siyosat yuritishni maqsad qilib oldi. Eng birinchi navbatda mamlakat fuqarolarini mo'g'ul bosqinchilaridan xolos qildi, o'zaro urushlar, talon-tarojliklarga barham berdi. Markazlashgan davlatni vujudga keltirdi.

Ikkinchidan, hamma zamonlarda shu jumladan Amir Temur zamonida ham adolat-u insofdan chekingan, imon-u insofni nafs balosiga almashtirgan amaldorlar, hokimlar, beklar, qozilar yasovul-u chapovullar, zakotchilar bo'lgan.

Amir Temur markazlashgan davlat vujudga keltirish jarayonida raiyatning mol mulkini talon-taroj qilishdan himoya qildi. Ichki va tashqi bosqinchi, talonchi, qaroqchilarning yo'li to'sildi. Amir Temur o'g'ri, qaroqchi, tamagir va zo'rovonlarni "Yaso" asosida, aksariyat hollarda qatl qilgan, fasodchi, buzuqi, nafi yomon kishilarni mamlakatdan haydab chiqargan. "Hokimlar, sipoh va raiyatdan qaysi birining xalqqa jabr-zulm yetkazganini eshitsam, ularga nisbatan darhol adolat-u insof yuzasidan chora ko'rdim" ("Temur tuzuklari). Raiyatga zolimlar tomonidan yetkazilgan moddiy va jismoniy zararlar, isbotlangandan keyin undirilar va shariat qoidalariga muvofiq jazolar belgilanardi.

Bu haqda fransuz adibi Leyseyn Kerenning "Temur haqqon saltanati" nomli risolasida shunday qayd etadi. "Amir Temur zafar topib safardan qaytganidan keyin zafar sharafiga ziyofatlar berildi. Ertasi kundun boshlab, Amir Temur saltanat yutuqlariga sho'ng'ib ketdi. Uning qattiqqo'lligini bilgan odamlar va sipohlar qaltirab turishardi. U uzoq vaqt yo'qligida bo'lib o'tgan voqealar bayonini diqqat bilan tinglab, narx-navoning haddan tashqari oshib ketishiga yo'l qo'ygan qonunni, adolatni buzgan savdogarlar, sudxo'rlar, tijoratchilar va olib-sotarlarni xukm chiqarib dorga ostirgan. Beva-bechoralarga kiyim-kechak, oziq-ovqat ulashdi. Saltanat fidoyilarini uch yil davomida barcha soliqlardan ozod qildi.

Uchinchidan, yer-suvga egalik qilish, foydalanish, tasarruf etish o'rta asrlarda hukmronlik qilgan iqtisodiy munosabatlarning asosini tashkil etgan. Amir Temurning xizmati shundaki, u o'z hukmronlik davrigacha shakllangan iqtisodiy munosabatlarni mustahkamladi, barqarorligini ta'minladi.

Amir Temur iqtisodiy siyosatining asosiy tamoyili "Mamlakatni obod, raiyatni rozi" qilish edi. U bunga farovonlik manbasi va odamzod rizqining vositasi bo'lmish dehqonchilikni rivojlantirish orqali erishish mumkin deb bildi. Raiyatning roziligi ham, xazinaning boyligi ham, harbiy qudratning iqtisodiy negizi ham shundan deb qaradi.

Tarixchi Ibn Arabshoxning yozishicha Amir Temur dehqonchilikka katta e'tibor va qat'iyatlik ko'rsatdiki, "Agar biror kishi garchi namozini tark qilishga majbur bo'lsa ham, dehqonchiligini tark qilishdan xazarda bo'lsin" deb ko'rsatma bergan. Ibrat bo'ladigan tomoni shundaki, Amir Temur o'z mamlakatinigina emas, hattoki fath etgan har bir mamlakatidagi dehqonlar va ekin maydonlariga ishlov beruvchilarni "ko'nglini xushnud

etsinlar, o'zlariga qaratsinlar" deb uqtiradi. Dehqonlarga yordam berish, ularni qo'llab quvvatlashni davlat iqtisodiy siyosatining asosi deb bildi. Xarob bo'lib yotgan yerlar egasiz bo'lsa, davlat tomonidan obod qilinsin, dehqonlar va raiyatdan qaysi birining dehqonchilik qilishga qurbi yetmay qolgan bo'lsa, unga ekin-tikin uchun zarur urug' va asboblarni hamda kerakli narsalarni bersinlar, toki o'z yerini obod qilib olsin, buzilgan ko'priklarni tuzatsinlar, ariqlar va daryolar ustiga yangi ko'priklar qursinlar, agar fuqarodan birining uy-imorati buzilib, tuzatishga qurbi yetmasa, kerakli uskunalarni yetkazib berib, unga yordam berilsin deb amr qildi.

Sayxun va Jayxun daryolaridan kanallar chiqarildi, ko'p yerlar ochildi, ziroat maydonlari kengaytirildi. Har qanday yerni ekinsiz qoldirmaslik chorasi ko'rildi. Temur Samarqandda ko'pdan-ko'p bog'-u bo'stonlar barpo qildi.

Amir Temur qishloq xo'jaligini rivojlantirishda soliqlarni rag'batlantirish usulidan oqilona foydalandi. Kimki biror sahroni obod qilsa yoki kariz qursa, bog' ko'kartirsa, xarob bo'lib yotgan yerni obod qilsa, birinchi yili undan hech narsa olmaganlar, ikkinchi yili raiyat o'z roziligi bilan berganini olganlar, uchinchi yili esa qoidalarga muvofiq soliq yig'ilgan. Soliqlarni bunday rag'batlantirish usuli hozirgi kunda qishloq xo'jaligida va kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini takomillashtirishda dasturi amal bo'lib xizmat qilmoqda.

To'rtinchi, Amir Temur hunarmandchilikni rivojlantirishga davlat iqtisodiy siyosatining ustivor yo'nalishlaridan biri deb qaragan va shu bois shunchalik katta e'tibor berganini, g'alaba to'y bahonalari bilan hunarmandchilik mahsulotlari, hunarmandlar san'ati ko'rsatmasini tashkil etgan, yarmarkalar uyushtirilgan.

Tarixchilar Sharofiddin Ali Yazdiy, Ibn Arabshohlarning guvohlik berishicha, 1404- yilning kuzida Sohibqiron "yetti yillik (1399-1404)" deb nom olgan yurishdan g'alaba bilan qaytganda Samarqand shahri yonida joylashgan Kanigilda oltita nabirasining nikoh to'yini o'tkazayotib, hunarmandchilik ko'rgazmasini ham tashkil etgan. Ko'rgazmada har bir hunarmand o'z hunariga bog'liq narsada juda jahd ko'rsatadi. Ko'rgazmada shuningdek, zargarlar, temirchilar, etikdo'zlar, yoy yasovchilar va boshqa toifadagi hunarmandlar, musiqa, hazil-mutoyiba va latifalar sohiblari ham o'z hunar-u san'atlarini namoyish qilganlar.

Tarixiy manbalarning guvohlik berishicha Amir Temur hunarmand, kasb-u kor egalari katta hurmat bilan qaragan, chunki hunarmandchilikni mamlakat rivojining asoslaridan biri deb bilgan. Amir Temur fatq qilingan mamlakatlar shaharlaridagi hunarmandlarni o'limdan saqlagan. Mohir hunarmandlarni Samarqand, Shahrisabzga olib kelgan va ulardan mamlakat obodonligi uchun foydalangan. Ular shaharlarda masjidlar, xonaqohlar, rabotlar, oliy imoratlar barpo etganlar, daryolar ustiga ko'priklar qurganlar.

Amir Temur dunyoning obodligi savdogarlar bilan, degan g'oyani olg'a surib, savdoni rivojlantirishga alohida e'tibor berdi. "Buyuk Ipak yo'li" deb nom olgan savdo yo'li uning davrida taraqqiyot davrini boshidan kechirdi.

Amir Temur ichki va tashqi savdoni rivojlantirishga to'siq bo'ladigan omillar, sabablarga bardam berdi. Amir Temur salatanati savdogarlari Xitoy, Xutan, Chini-Mochin, Hindiston, Arab mamlakatlari, Misr, Shom, Rum, Jazoir, Farang (Yevropa) mamlakatlari bilan oldi sotdini amalga oshirgan.

Amir Temur Ispaniya qiroli Genrix III, Fransiya hukmdori Karl VI, Angliya qiroli Genrix IV, saroylariga elchilar yuborib, mutanosib ravishda ispaniyalik, fransiyalik, angliyalik, xitoylik va boshqa qator xorijiy elchilarni o'z saltanatida qabul qilgan.

Sohibqironning Fransiya qiroli Karol VI ga yozgan xatidagi quyidagi fikri diqqatga sazovardir. "Siz o'z savdogarlaringizni mening saltanatimga yuboring. Biz ularni iliq

qarshi olib izzat-ikrom ko'rsatamiz. Biz ham o'z savdogarlarimizni sizning yurtigingizga yo'llaymiz. Siz ham ularga hurmat ko'rsating, ularga ortiqcha tazyiqlar qilinishiga yo'l qo'ymang. Sizga bundan bo'lak talabim yo'q. Zero dunyo savdo ahli ila obod bo'lajak" Fransiya qiroli Karol VI ham 1402-yil avgustida Amir Temurga xuddi shunga o'xshash maktub bilan murojaat qiladi.

Savdoni rivojlantirishga shuncha e'tibor berilganki, turli sabablarga ko'ra sarmoyasi qo'lidan ketib qolgan savdogarlarni o'z sarmoyasini qaytadan tiklab olish uchun xazinadan yetarli miqdorda oltin berilgan.

Amir Temurning ichki va tashqi siyosatda eng katta yutug'i, mag'lubityalarsiz g'alabalari, buyuk davlat barpo qilishning negizini kadrlarni tanlash, joy-joyiga quyish, ularning mehnati samaradorligiga qarab rag'batlantirishni tashkil etadi. Qonunni buzgan xalqqa zarar keltirgan rahbarlarni shavqatsiz jazolagan.

Buning misolini Amir Temur Hindistonni zabt etib qaytganda o'g'li Mironshoh davlatni boshqargan. Temur safarligida vazirlari xalqqa soliqlarni ko'tarib xalqning noroziligiga sabab bo'lgan. Temurga shikoyat keladi. Ushbu yo'nalishni aniqlab Temur Ozarbayjonni boshqargan o'g'li Mironshohni va xalqqa jabr qilgan to'rtta vazirni o'lim jazosiga xukm qiladi. O'g'li Mironshohni bir narsa uning vrachi Mironshohning kasalligini boshida qon aylanishi buzilganligini bayon qiladi demak kasallik o'g'lini o'limdan saqlab qoladi. Butun xalqni xabardor qilib chaqirtirib 4 ta xalqni qashshoqlantirishga moyil bo'lgan vazirlarni nomoishona dorga ostirgan.

Aqlli bilimdon kishilar - olimlar, fozillar, ehtiyotkor, xushyor arboblar, keyinni o'ylab olisni ko'zlab ish yurituvchi keksa va tajribali kishilar Sohibqironning xos majlisining doimiy a'zolari bo'lishgan. Har kishining bilimi, tajribasi, malakasi, sofdilligi, shijoatiga qarab davlat boshqaruviga jalb qilgan.

Amir Temur bilan shaxsan suhbatlashishga musharraf bo'lgan mashhur arab tarixchisi va faylasufi Ibn Xoldun "Munozara - bahslarni yaxshi ko'radigan o'tkir zakovatli inson edi", - deydi. Bir vaqtlar Damashqdan Samarqandga tutqin sifatida olib kelingan. 1401-1408-yillarda Samarqandda yashagan, "Amir Temur tarixi" kitobi muallifi Ibn Arabshoh "Temur tengi yo'q, fe'l - atvorli, chuqur mulohazali kishi bo'lib, uning tafakkur dengizining qari yo'q..." desa, Parijning turkiy tadqiqotchilar institutining direktori Lui Bozen "Temur hukmdor kabi tarix g'ildiragini o'zgartirgan insonlar juda kam bo'lgan", - deydi.

### **Xulosa**

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Temurning davlatni boshqarishda, adolatli imperiya tashkil qilganligi sababli, bugun dunyoning qariyb 50 mamlakatida temurshunos olimlar faoliyat ko'rsatmoqda. O'tgan olti yuz yil mobaynida Amir Temurga bag'ishlab yaratilgan jiddiy asarlarni Yevropa tillarida 500 dan ziyodini sharq tillarida 900 ga yaqinni tashkil etadi. Bunday Amir Temur faoliyatiga bo'lgan jahon miqyosida e'tirof etilgan shaxs sifatida tarannum etilishi mamlakatimiz fuqarolari ayniqsa yoshlar ongida, o'zligini anglash, milliy g'urur tuyg'usini shakllantirishda asosiy manba bo'lib xizmat qiladi.

### **ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Mirziyoyev Sh.M. Amir Temur bobomizning qutlug' tavallud ayyomlariga tayyorgarlik. Prezident.uz, 2020–2025 yillar.
2. Mirziyoyev Sh.M. Daryo muxbiri bilan suhbat: "Amir Temur davrini qaytadan o'rganishimiz lozim." Daryo.uz, 2022.

3. Temur tuzuklari. 2024.
4. Ibn Arabshox. Temur davri siyosati va iqtisodi. 1992.
5. Leyseyn Keren. Temur saltanati. Fransiya, XIX asr.
6. Sharofiddin Ali Yazdiy – “Zafarnoma” 2023.
7. Louis Bazin (Lui Bozen). Temur va tarix g'ildiragini o'zgartirgan shaxslar. Parij, XX asr.

---

**Gulzoda Qobulova**, Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti 07.00.01 O'zbekiston tarixi ixtisosligi bo'yicha tayanch doktorant ORCID ID: 0009-0005-7028-500X

E-mail: [qobulova.g@urdu.uz](mailto:qobulova.g@urdu.uz)



---

## O'ZBEKISTONDA RAQAMLI TARIX ASOSIDA O'RTA ASR MANBALARINI TAHLIL QILISH IMKONIYATLARI

<https://zenodo.org/records/18841206>

**Annotatsiya:** Mazkur ilmiy maqolada O'zbekistonda raqamli tarix (digital history) paradigmasi doirasida o'rta asr yozma va epigrafik manbalarni tahlil qilish imkoniyatlari ilmiy-nazariy hamda amaliy jihatdan asoslab beriladi. Tadqiqotning dolzarbligi mamlakatda tarixiy-madaniy merosni muhofaza qilish va undan foydalanishni tartibga soluvchi me'yoriy baza mavjudligi, shuningdek, yirik fondlar va kutubxonalar tomonidan raqamli resurslar yaratish jarayonlari faollashgani bilan belgilanadi. Tadqiqot obyekti — O'zbekiston hududiga oid o'rta asr manbalari (qo'lyozmalar, tarixiy hujjatlar, katalog tavsiflari va ularning raqamli nusxalari). Predmeti — ushbu manbalarni raqamli tarix vositalari orqali ilmiy tahlil qilish (metama'lumot, matnni raqamli qayta ishlash, geoma'lumotlar, tarmoq va korpus tahlillari) metodlari va ularning manbashunoslikdagi natijaviyligi. Metodologik asos sifatida manbashunoslikning tanqidiy tahlili, raqamli arxivshunoslik tamoyillari, metama'lumotlarni standartlashtirish, matnlarni OCR/HTR asosida mashinada o'qish va indekslash, shuningdek, vizual-analitik yondashuvlar (masalan, multispektral tasvirlash orqali xiralashgan matn qatlamlarini tiklash) integratsiyalashgan holda qo'llanadi. Maqolada O'zbekistonda mavjud raqamli infratuzilma misolida (milliy kutubxona raqamli resurslari; qo'lyozmalar fondi elektron kataloglari) o'rta asr manbalarini “raqamli egizak” sifatida qayta qurish, ilmiy muomalaga kiritish va takrorlanuvchi tahlil (reproducible research) tamoyili asosida tekshirish imkoniyatlari ko'rsatib beriladi. Ilmiy yangiligi sifatida o'rta asr manbalarini tahlil qilishning yagona “raqamli ish jarayoni” (digitization → metadata → matnni tanib olish → korpus/GIS/tarmoq tahlili → verifikatsiya) konseptual modeli taklif etiladi. Bundan tashqari arab yozuvidagi qo'lyozmalarda HTR (qo'lyozma matnni tanish) va multispektral tasvirlashdan birgalikda foydalanish manba tanqidini kuchaytirishi ilmiy dalillar bilan asoslanadi.